

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIRMARTALIK KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ISMAILOV ANVAR RUSTAMOVICH**

**OLIY TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TIL O'QITUVCHISINING  
PEDAGOGIK MADANIYATI VA KOMPETENSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации**

**Contents of the abstract of doctoral dissertation**

**Ismailov Anvar Rustamovich**

Oliy ta’lim tizimida xorijiy til o‘qituvchisining pedagogik madaniyati  
va kompetensiyasini takomillashtirish ..... 3

**Исмаилов Анвар Рустамович**

Усовершенствование педагогической культуры и компетенции  
преподавателя иностранного языка в системе высшего образования ..... 27

**Ismailov Anvar Rustamovich**

The improvement of pedagogical culture and competence of foreign language  
teacher in higher educational system ..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 58

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH QOSHIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ISMAILOV ANVAR RUSTAMOVICH**

**OLIV TA'LIM TIZIMIDA XORIJIY TIL O'QITUVCHISINING  
PEDAGOGIK MADANIYATI VA KOMPETENSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirlarligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2023.3.DSc/Ped226 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Maxkamova Gulnara Turdiaxonovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Misirov Sohijjon Abdupattayevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Isroilova Dildora Muxtarovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "1" may soat 10:00 dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: [info@samdhti.uz](mailto:info@samdhti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (63042 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43. Tel.: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "17" aprel kuni tarqatildi.  
(2026-yil "17" aprel dagi №24 raqamli reyestr bayonnomasi)



**N.Z. Nasrullayeva**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi globallashuv zamonda jahon hamjamiyatida nafaqat amaliy bilimlar zahirasiga, balki keng dunyoqarash, insonparvarlik fazilati, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan xorijiy til o'qituvchilarga ehtiyoj ortib bormoqda. Chet tillarni o'qitishning metodikasi nafaqat zamonaviy ta'lim metodlari va yondashuvlarga, balki ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligida hamda chet tili ta'limini to'g'ri tashkil etilishida muhim rol o'ynaydigan pedagogning kasbiy faoliyatiga ongli tarzda yangicha yondashuviga, uning pedagogik kompetensiyasi va pedagogik madaniyati darajasi kabilarga ham tayanadi. Bunda oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining uzviy tarkibiy qismi sifatida pedagogik kompetensiyaning takomillashishiga yo'naltirilgan nazariy tadqiqotlarning o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik madaniyatni takomillashtirilishi masalasi, uning rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi komponentlar va omillarni o'rganish ham o'ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Xorijiy tilini o'qitish bo'yicha jahon tajribasi oliy ta'lim tizimida o'qituvchining pedagogik kompetensiyasini o'rganishga katta qiziqish uyg'otadi, zero, bugungi kunda pedagogik kompetensiya va pedagogik madaniyat o'qituvchining o'z kasbiy va o'quv-tashkiliy faoliyatini amalga oshirishida hamda xalqaro va millatlararo hamkorlik munosabatlarini o'rnatishda eng muhim fazilatlardan hisoblanadi. Bu jihatdan o'qituvchilar va bo'lajak ingliz tili mutaxassislari sifatida filologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari talabalarining pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish bosqichlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda pedagogik kompetensiyani bosqichma-bosqich joriy etish va ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini takomillashtirish, shuningdek bu jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish muhim hisoblanadi.

Bizning mamlakatimiz taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri sifatida ta'lim tizimini takomillashtirish hamda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan o'tkazilgan tantanali yig'ilishda ta'kidlaganlaridek "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak."<sup>1</sup> Hozirda chet tillarini o'qitish O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida muhim o'rin egallab, intellektual va ma'naviy qadriyatlar rivojiga alohida e'tibor qaratayotgan mamlakatning ehtiyojiga aylangan. Chet tili ta'limi ijtimoiy hodisa va tarixiy taraqqiyot fenomeni hisoblanadi. Globallashuv doirasida chet tillar iqtisodiy, madaniy va ilmiy hamkorlik maqsadlarida dunyo xalqlari va mamlakatlari bilan aloqaga kirishish uchun katta zaruratdir.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Устозлар ва мураббийлар кuni муносабати билан 2020 йил 30 октябрда ўтказилган тантанали йиғилишда сўзлаган нутқидан // Сайт ЎЗА сайти (Электрон ресурс). – URL <https://uza.uz/ru/posts/vystuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziye-30-09-2020> (Мурожаат санаси: 14.02.2021)

Mazkur dissertatsion tadqiqot shuningdek O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi ZRU-637-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillardagi Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmonlari, 2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelda «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyunda «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2021-yil 19-mayda «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorlari va bu boradagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” doirasidagi ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning sharhi.** OTM va umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining lingvistik tayyorgarlik usullari va pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish jarayoni bo‘yicha tadqiqotlar Moskva davlat universiteti (Rossiya); Rostov davlat pedagogika universiteti (Rossiya); Volgograd davlat universiteti (Rossiya); Oltoy davlat universiteti (Rossiya); Nyu-Jersi universiteti (AQSh), Pensilvaniya davlat universiteti (AQSh), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Samarqand davlat chet tillar instituti (O‘zbekiston) <sup>2</sup> da olib borilmoqda.

Oliy va o‘rta ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar doirasida chet tillarini o‘rganishda psixologik va individual xususiyatlar Nyu-Jersi universitetida o‘rganildi; til tizimidagi o‘zgarishlar va til jamiyatining xabardorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik Pensilvaniya davlat universitetida aniqlandi; tilning lingvomadaniy ko‘rsatkichlari aniqlandi va til tizimining rivojlanishiga madaniyatning ta’siri Oksford universitetida ko‘rib chiqildi; maktabda chet tillarini o‘qitishning psixologik jihatlari Moskva davlat universitetida o‘rganildi; shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi va amaliyoti Rostov davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan; tinglovchilar bilan

---

<sup>2</sup><https://www.msu.ru>; <https://rspu.edu.ru>; <https://volsu.ru>; <https://www.asu.ru>; <https://rutgers.edu>; (12.03.2020) <https://www.psu.edu>; <https://www.ox.ac.uk>; <https://www.uzswlu.uz>; <https://tdpu.uz>; <https://www.samdchti.uz>. (09.01.2021)

shaxslarga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlarni loyihalash uchun o'qituvchilarni tayyorlash kursi Volgograd davlat universitetida shakllantirildi; Mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda innovatsion o'qitish texnologiyalari Oltoy davlat universitetida joriy etildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Pedagogik kompetensiya va pedagogik madaniyatning o'ziga xos rivojlanish dinamikasi va takomillashtirish muammolari xorijiy, rus va maxalliy olimlarning asarlarida ma'lum darajada bayon qilingan. Xorijiy olimlardan R. Ellis, M.D. Kamalja, S.F. Khatik, T.G. Hitesh, M.M. Randall, A.C. Jane, D. Zolton<sup>3</sup> kabilar tadqiqotimiz mavzusiga dahldor masalalar yuzasidan tadqiqotlar o'tkazishgan. Jumladan, R.Ellis o'z tadqiqotlarida ta'lim sifatini oshirishda maxsus topshiriqlarga alohida e'tibor qaratadi. M.D. Kamalja, S.F. Khatik, T.G. Hitesh o'quv jarayonini yaxshilash maqsadida chet tillarini o'qitish bo'yicha yangi metdodlarni ishlab chiqishadi. M.M. Randall, A.C. Jane pedagogikaning didaktika aspektida muhim masalalarini o'rganishgan. D. Zolton chet tillarini o'rganishda psixologiya masalalarini o'z monografiyasida yoritgan.

Yaqin xorij mamlakatlari olimlari ham pedagogik kompetensiya va pedagogik madaniyat masalasini o'rganishga unchalik ko'p bo'lmagan tadqiqotlarini bag'ishlashgan: N.N. Alova, E.P. Artamonova, L.A. Auxadeyeva, N.S. Belyayeva, N.D. Galskova va N.I. Gez, V.S. Yelagina, G.V. Yelizarova, O.S. Zaxarova, I.A. Zimnyaya, I.F. Isayev, N.V. Kuzmina, Yu.V. Manuxina, A.K. Markova, S.V. Sokolova va boshqalar<sup>4</sup>.

---

<sup>3</sup> Ellis R. Task-based language teaching: sorting out the misunderstandings // International Journal of Applied Linguistics, 2009. – Vol. 19. – № 3. – P. 221-246; Kamalja M.D., Khatik S.F., Hitesh T.G. Modern Approaches and Methods in Teaching English Language // International Journal of Research & Innovation. Double Blind Peer Review referred Journal, 2016. – Vol. 2. – Issue-3. – P. 6-13; Randall M.M., Jane A.C. Learner-centered pedagogy: considerations for application in a didactic course // The Professional Counselor, 2015. – Vol. 5. – Issue 3. – P. 379-389; Zolton D. The psychology of the language learner: Individual differences in second language acquisition. – New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 2005. – 270 p.

<sup>4</sup>Алова Н.Н. Структура педагогической культуры преподавателя профессионального лица // Современные проблемы науки и образования. – 2013. – № 2.; Артамонова Е.П. Формирование иноязычной коммуникативной компетентности у будущих учителей иностранного языка на основе социокультурного подхода: Дисс. ... канд. пед. наук. – Магнитогорск, 2004. – 175 с.; Аухадеева Л.А. Коммуникативная культура педагога как фактор повышения качества образования // Филология и культура, 2012. - № 1(27). – С. 226-230.; Беляева Н.С. Система формирования профессиональной компетентности учителя в процессе педагогической деятельности // Проблемы и перспективы развития образования: материалы I Междунар. науч. конф. (г. Пермь, апрель 2011 г.). – Т.1 – Пермь: Меркурий, 2011. – С. 11-14.; Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория и методика обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика: Учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2004. – 336 с.; Елагина В.С. Становление педагогической компетентности студентов педагогического вуза // Современные наукоёмкие технологии, 2010. - № 10. – С. 113-116.; Елизарова Г.В. Культура и обучение иностранным языкам. – СПб.: КАРО, 2002. – 352 с.; Захарова О.С. Формирование педагогической компетентности у студентов в системе высшего юридического образования: Дисс. ... канд. пед. наук. – Хабаровск, 2007. -17 с.; Зимняя И.А. и др. Общая культура человека в системе требований государственного образовательного стандарта. – Москва: Исследов. центр проблем качества подготовки специалистов, 1999. – 67 с.; Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва: Академия, 2002. - 208 с.; Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – Москва: Высшая школа, 1990. - 117 с.; Манухина Ю.В. Формирование социолингвистической компетенции в процессе овладения формулами речевого этикета: Дисс. ...канд. пед. наук. – Москва, 2006. – 268 с.; Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 308 с.; Соколова С.В. Формирование педагогической компетентности будущего преподавателя: на примере подготовки преподавателя педагогических дисциплин: Дисс. ... канд. пед. наук. – Волгоград, 2004. – 226 с.

Xususan, N.N. Alovning (2013) tadqiqotida professional litsey pedagogik madaniyatining tarkibiy tuzilishi bayon etiladi. Ye.P. Artamonovning (2004) ishida ijtimoiy-madaniy yondashuv asosida bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kommunikativ kompetentligini takomillashtirish masalasi o'rganilgan. L.A.Auxadeyevaning (2012) tadqiqotida pedagogning kommunikativ madaniyati ta'lim sifatini belgilovchi omil sifatida talqin etilgan. N.S. Belyayeva (2011) o'qituvchining kasbiy malakasini takomillashtirish tizimini pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda tadqiq etadi. N.D. Galskova va N.I. Gez (2004) o'z monografiyalarida chet tilini o'qitish nazariyasi va metodikasini lingvodidaktika aspektida yoritishadi. V.S. Yelagina (2010) pedagogikada OTM talabalarining pedagogik kompetensiyasini takomillashtirish jarayonini bayon qiladi. G.V. Yelizarova (2002) chet tilini o'qitishda madaniyat rolini asoslaydi. Shuningdek, o'z tadqiqotida oliy yuridik ta'lim tizimida talabalarning pedagogik madaniyati va kompetensiyasini shakllantirish jarayonini aks ettirgan. O.S. Zaxarova (2007) tadqiqotini ham ushbu qatorga qo'shish joyiz. I.A. Zimnyaya va boshqalar (1999) davlat ta'lim standarti tizimi doirasida insonning umumiy madaniyatini o'rganadi. I.F. Isayeva (2002) o'zining o'quv qo'llanmasida o'qituvchining kasbiy-pedagogik madaniyatini tarkibi to'g'risida fikrlarini bayon qilgan. N.V. Kuzmina (1990) o'qituvchi shaxsining kasbiy mahoratini va ishlab chiqarish ta'limida professionalizm darajasini tadqiq qiladi. Yu.V. Manuxina (2006) o'zining nomzodlik dissertatsiyasini nutqiy madaniyat formulalarini o'zlashtirish jarayonida sotsiolingvistik kompetensiya shakllantirilishiga bag'ishlaydi. A.K. Markova (1996) o'zining monografiyasida professionalizmning psixologiyasi va tarkibiy tuzilishini tadqiq qiladi. S.V.Sokolovning (2004) nomzodlik dissertatsiyasida bo'lajak o'qituvchining pedagogik kompetensiyasini shakllanish jarayoni yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chet tili o'qituvchisining pedagogik faoliyatini amalga oshirishi hamda pedagogik, kommunikativ, madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlanishi vatanimiz olimlari tomonidan ham o'rganilgan, jumladan, L.T. Axmedova, J.J. Jalolov, S.A.Ziyaeva, N.N. Isamuxamedova, N.X. Kushieva, G.T. Mahkamova, M.M. Maxmudova, K.Sh. Muradkasimova, X. Mamatkulov, G.X. Rahimov, F.M. Rashidova, K.J.Risqulova, I.M. Tuxtasinov va boshqalar<sup>5</sup> o'z tadqiqotlarida mavzuga muayyan darajada munosabat bildirishgan.

---

<sup>5</sup> Axmedova L.T., Lagay E.A. Современные технологии преподавания русского языка и литературы. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2016. – 296 с.; Жалолов Ж. Чет тилини ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 431 б.; Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology (theory and practice). – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 б.; Зияева С.А. Совершенствование социолингвистической компетенции студентов языковых высших образовательных учреждений при обучении немецкому языку: Дисс. ... док-ра. пед. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2019. – 331 с.; Исамухамедова Н.Н. Система заданий для развития рефлексии преподавателей английского языка // Современные гуманитарные исследования, 2009. - № 5 (30). – С. 172-174.; Кушиева Н.Х. Узлуксиз таълим тизимида инглиз тилини кластерли ёндашув асосида ўқитиш модели: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2023. – 239 б.; Маматкулов Х.А. Педагогларда хорижий тиллар бўйича касбий компетентликни ривожлантиришнинг ахборот-методик таъминотини такомиллаштириш: пед. фан. бўйича ... PhD дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 47 б.; Махкамова Г.Т. Формирование межкультурной компетенции студентов филологического вуза (английский язык): Дисс. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2011. – 329 с.; Махмудова М.М. Катталар ва болалар муносабатининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – 164 б.; Мурадкасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабалар кўникма ва

Masalan, L.T. Axmedova va Ye.A. Lagay (2016) rus tilini chet tili sifatida o'rganishning zamonaviy texnologiyalarini o'rganishgan. J.J. Jalolovning (2012, 2015) ilmiy ishlarida chet tilini o'qitishda yuzaga keladigan muammolar yoritilgan. S.A. Ziyaeva (2019) o'zining doktorlik dissertatsiyasida nemis tilini o'rgatishda filologik oliy o'quv yurti talabalarida sotsiolingvistik kompetensiyani takomillashtirish usullarini yoritadi. N.N. Isamuxamedova (2009) ingliz tili o'qituvchilari refleksiyyasini rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimini tadqiq etadi. G.T.Maxkamovning (2011) doktorlik dissertatsiyasida filologik oliy o'quv yurti talabalarining madaniyatlararo kompetensiyasini shakllanish jarayoni tasvirlanadi. Olimning boshqa tadqiqotlarida (2015, 2017) madaniyatlararo ta'limning xorijiy tajribasida plyurolingvalizm muammosi yoritiladi. P. Omonov (2017) ishlarida o'quv jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning shakllantirilishi ko'rib chiqiladi. G.X. Raximov (2017) o'zining monografiyasida mamlakatda ingliz tilini o'qitishda sotsiolingvistik va pragmatik ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. F.M.Rashidovning (2017) doktorlik dissertatsiyasida O'zbekiston ta'lim tizimiga CEFR tatbiq etilishining konseptual-metodik prinsiplari bayon qilinadi. K.J.Risqulovning (2017) doktorlik dissertatsiyasi bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining sotsiolingvistik kompetensiyasining shakllanishini o'rganishga bag'ishlanadi. T.K. Sattorov (2009) o'z ilmiy tadqiqotlarida chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini ko'rib chiqadi. K. To'xtaeva (2017) chet tili o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligi va malakasini oshirilishi sohalarining istiqbollari tahlil qilinadi. I.M. Tuxtasinov (2018) o'z doktorlik ishida bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirilishi va rivojlantirish masalalarini o'rganadi. Sh. Sharopov va M. Umarova (2017) o'z tadqiqotlarida bo'lajak chet tili o'qituvchilarning professional kompetensiyasi masalalarini yoritishadi.

Umuman, pedagogik kompetensiya muammosining o'rganilishi asosan nolisoniy oliy o'quv yurtlari talabalari hamda maktab o'quvchilari uchun rus, ingliz va nemis tillari materialida amalga oshirilgan. Biroq, oliy ta'lim tizimida ingliz tili o'qituvchisining pedagogik kompetensiyasi va pedagogik madaniyatini takomillashtirish masalasi kam tadqiq etilgan. Shu tarzda, muayyan ishlar mavjudligiga qaramasdan, ushbu muammo ilmiy-metodik adabiyotlarda juda kam

---

малакаларини баҳолаш хусусиятлари: Пед.фан. бўйича PhD ... дисс. – Тошкент, 2019. – 167 б.; Омонов П. Таълим жараёнида ижтимоий-маданий компетенцияни шакллантириш аспекти // Филология масалалари. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2017. – № 1. – Б. 137-140.; Рахимов Ф. Инглиз тили Ўзбекистонда: социолингвистик ва прагматик кўрсаткичлар. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – 268 б.; Рахмонов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в самообразовательной деятельности: Дисс. док. пед. наук. – Ташкент, 2022. – 234 с.; Рашидова Ф.М. Ўзбекистон узлуксиз таълим тизимида CEFRни татбиқ этишнинг концептуал-методик асосларини такомиллаштириш (инглиз тили мисолида): Пед. фан. док. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Рискулова К.Ж. Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими.: Автореф. дисс. ... пед. фан. док. – Тошкент, 2017. – 62 б.; Сатторов Т.К. Хорижий тил ўқитувчисининг касбий лаёқати ҳақида // Бўлажак чет тил ўқитувчисини касбий йўналтириш технологияси: Илмий-амалий конф. матер. – Тошкент, 2009. – Б. 232-238.; Тухтаева Қ. Хорижий тил педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш истикболлари // Филология масалалари. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2017. – № 1. – Б. 150-154; Тухтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни шакллантириш ва ривожлантириш (эквивалентлик ходисаси асосида): Дисс. ... пед. фан. док. (DSc). – Тошкент, 2018. – 240 б.; Шаропов Ш., Умарова М. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей как педагогическая проблема // Учёные записки (Номаи донишгоҳ), 2017. – № 3. – С. 156-161.

yoritilgan va uni nazariy hamda amaliy rejada yanada batafsil o'rganishga katta zarurat mavjud.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining "Chet tillarini o'rganishning zamonaviy metodlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi, shuningdek, Turkiyaning Hacettepe Universitetidagi "Chet tili bo'yicha malakali kadrlarni tayorlash" dasturi, chet tillarini o'qitish kurslarini tashkil etish va gid-tarjimon xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bir qator xo'jalik-shartnomalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** muallif konsepsiyasini hamda chet tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini takomillashtirishning maxsus metodikasini yaratishni nazariy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi quyidagi **tadqiqot vazifalarini** belgilab berdi:

oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchisining kasbiy faoliyatini amalga oshirish maqsadida pedagogik kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida pedagogik madaniyatning rolini aniqlash va uning mazmuni hamda takomillashtirish shartlarini belgilash;

chet tillarini o'qitishda chet tili o'qituvchisining pedagogik madaniyati va kompetensiyasining o'zaro aloqasi hamda shartlanilganligini aniqlash va pedagogik madaniyatni takomillashtirishda ijtimoiy-lingvistik va ijtimoiy-madaniy omillar ta'sirini yoritib berish;

chet tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalashtirish hamda axborotlashtirish jarayonlarini namoyish qilish;

pedagogik madaniyatli va kompetentli chet tili o'qituvchisining shaxsiyati mohiyatini belgilash hamda uni takomillashtirishning samarali usullarini aniqlash;

chet tili o'qituvchisining pedagogik madaniyatini takomillashtirish modeli kognitiv, tashkiliy faoliyat, motivatsion mezonlar yordamida tahlil qilish;

chet tili o'qituvchisining pedagogik madaniyatini takomillashtirish bo'yicha muallif konsepsiyasini va maxsus metodikasini yaratish hamda chet tili o'qituvchisining pedagogik madaniyatini takomillashtirish bo'yicha o'quv materialini hamda metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchisining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirish jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti** – pedagogik kompetensiyani tarkibiy komponentlari hamda oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchisining pedagogik madaniyati takomillashtirishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan iborat.

**Tadqiqot metodlari** belgilangan vazifalarni hal etish maqsadida quyidagi kompleksdan tashkil topdi: pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarning nazariy tahlili, modellashtirish metodi, pedagogik kuzatuv, anketalashtirish, statistik tahlil va tajriba metodi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

chet til o'qituvchisining kasbiy-ma'naviy sifatlarini shakllantirishda axloqiy-estetik qadriyatlar va kommunikativ integratsiyalashgan metodik tizim asosida

xorijiy til o'qituvchisining kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga doir nazariy va amaliy yondashuvlar tizimlashtirilgan;

milliy va xalqaro ta'lim standartlariga mos innovatsion yondashuv asosida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'sishini ta'minlovchi kognitiv, motivatsion va kommunikativ komponentlarning o'zaro integratsiyasiga moslashtirilgan metodik mexanizm modellashtirilgan;

pedagogik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening dasturi hamda filologik yo'nalishdagi talabalar uchun pedagogik amaliyotga yo'naltirilgan modulli mashg'ulotlar tizimi asosida pedagogik kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

xalqaro tajriba asosida xorijiy til o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatini baholovchi indikatorlar hamda pedagogik kompetensiyaning asosiy komponentlarini aniqlovchi funksional-modellashtirilgan struktura asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanish darajasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

nutqiy etiket asosida o'qituvchilarning madaniy nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik ta'minot asosida shaxsiy-aksiyologik, psixopedagogik va kasbiy mezonlarga asoslangan pedagogik faoliyat mezonlari tizimi takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchisini pedagogik madaniyatga o'rgatish prinsiplari va vositalari tizimlashtirilgan;

til o'qituvchi institutlarning chet tili o'qituvchilarini pedagogik madaniyatga o'rgatish metodikasi takomillashtirilgan;

chet tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar taklif etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan tadqiqot usullari, fundamental ilmiy-nazariy qoidalar, tahlil qilingan ko'p miqdordagi materiallar, ushbu sohadagi oldingi tadqiqotlarning nazariy-amaliy tajribasi bilan, shuningdek, tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishining nazariy mazmuniga muvofiqligi bilan ta'minlanadi; xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilgan, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning nazariy ahamiyati filologik va pedagogik ta'lim nazariyasini boyitishi, o'zida oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyasi va madaniyatini shakllantirish modellarining ilmiy asoslanganligini mujassam etishi, chet tili mutaxassislarini tayyorlash omillari, printsiplari va metodlari aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalarini ta'lim-tarbiya jarayonida oliy ta'lim muassalarining ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi hamda pedagogik faoliyatlari sifatini takomillashtirish maqsadlarida qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi. Dissertatsion tadqiqot materiallaridan "Chet tili o'qitish metodikasi", "Nutq madaniyati", "Pedagogika", "Psixologiya" fanlaridan darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yaratishda, maxsus fanlarni o'qitishda, dissertatsion tadqiqotlar va monografiyalar yozishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xorijiy til o'qituvchisining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirish usullarini tadqiqot qilish asosida:

chet til o'qituvchisining kasbiy-ma'naviy sifatlarini shakllantirishda axloqiy-estetik qadriyatlar va kommunikativ integratsiyalashgan metodik tizim asosida xorijiy til o'qituvchisining kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga doir nazariy va amaliy yondashuvlar tizimlashtirilgan haqidagi ilmiy xulosalar Yevropa Ittifoqining Erasmus + 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP dasturi doirasidagi "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiya qilish va xalqarolashtirish" innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 27 iyuldagi 53/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, chet til o'qituvchisining kasbiy-ma'naviy sifatlarini shakllantirishda axloqiy-estetik qadriyatlar va kommunikativ integratsiyalashgan metodik tizim asosida xorijiy til o'qituvchisining kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga doir nazariy va amaliy yondashuvlar tizimlashtirilgan;

milliy va xalqaro ta'lim standartlariga mos innovatsion yondashuv asosida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'sishini ta'minlovchi kognitiv, motivatsion va kommunikativ komponentlarning o'zaro integratsiyasiga moslashtirilgan metodik mexanizm modellashtirilganligi haqidagi tavsiyalar Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL: "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" ("Yevropa tillarini o'qitishni rivojlantirish va magistratura dasturlari asosida til o'qitishni modernizatsiya qilish") til o'qitishni aralashtirilgan magistratura dasturlarini ishlab chiqish maqsadida foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023 yil 27 iyuldagi 52/02-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiyadagi materiallar va tavsiyalar milliy va xalqaro ta'lim standartlariga mos innovatsion yondashuv asosida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'sishini ta'minlovchi kognitiv, motivatsion va kommunikativ komponentlarning o'zaro integratsiyasiga moslashtirilgan metodik mexanizm modellashtirilgan;

pedagogik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening dasturi hamda filologik yo'nalishdagi talabalar uchun pedagogik amaliyotga yo'naltirilgan modulli mashg'ulotlar tizimi asosida pedagogik kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining "STV" davlat telekanalida madaniy-ma'rifiy mavzular doirasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga bag'ishlangan ko'rsatuv stsenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023 yil 1 avgustdagi № 01-07/260-son ma'lumotnomasi). Natijada, pedagogik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus trening dasturi hamda filologik yo'nalishdagi talabalar uchun pedagogik amaliyotga yo'naltirilgan modulli mashg'ulotlar tizimi asosida pedagogik kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmi ishlab chiqilgan;

xalqaro tajriba asosida xorijiy til o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatini baholovchi indikatorlar hamda pedagogik kompetensiyaning asosiy

komponentlarini aniqlovchi funksional-modellashtirilgan struktura asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanish darajasini baholash mezonlari bo'yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar Samarqand viloyati pedagog kadrlarni yangi metodika bo'yicha tayyorlash milliy markazida o'qituvchilarning pedagogik malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari materiallarida qo'llanildi (Samarqand viloyati pedagog kadrlarni yangi metodikalar bo'yicha tayyorlash milliy markazining 2023-yil 4-avgustdagi 03/1-117-son ma'lumotnomasi). Dissertatsiya ishi materiallaridan foydalanish natijasida xalqaro tajriba asosida xorijiy til o'qituvchilarining kommunikativ faoliyatini baholovchi indikatorlar hamda pedagogik kompetensiyaning asosiy komponentlarini aniqlovchi funksional-modellashtirilgan struktura asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanish darajasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

nutqiy etiket asosida o'qituvchilarning madaniy nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik ta'minot asosida shaxsiy-aksiyologik, psixopedagogik va kasbiy mezonlarga asoslangan pedagogik faoliyat mezonlari tizimini takomillashtirishga oid ilmiy xulosalar Chelyabinsk davlat madaniyat instituti va Samarqand davlat chet tillar instituti o'rtasidagi hamkorlik doirasida chet tili o'qituvchilarini tayyorlash va ularning pedagogik kompetensiyasini oshirish bo'yicha xalqaro o'quv seminarini o'tkazishda foydalanildi (Chelyabinsk davlat madaniyat instituti ma'lumotnomasi). Dissertatsiya tadqiqoti materiali va natijalaridan foydalanish natijasida nutqiy etiket asosida o'qituvchilarning madaniy nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik ta'minot asosida shaxsiy-aksiyologik, psixopedagogik va kasbiy mezonlarga asoslangan pedagogik faoliyat mezonlari tizimi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro va 10 ta respublika konferentsiyalarida ma'ruzalar ko'rinishida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 31 ta ilmiy ish e'lon qilingan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik ishining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan 17 ilmiy maqola, ulardan respublika nashrlarida 10 ta, xorijiy ilmiy jurnallarda 7 tasi nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, boblar bo'yicha xulosalar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 202 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti va materiali aniqlangan; tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchlilik asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, natijalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**“Pedagogik madaniyatning nazariy asoslari chet tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi aspektida”** bobida malakali chet tili o'qituvchilarini tayyorlashga nisbatan zamonaviy talablar ilgari surildi. Pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlari va unda pedagogik madaniyatning o'rni yanada batafsil, birma-bir ko'rib chiqildi. Pedagogik madaniyat pedagogik hamkorlikni tashkil etish uchun zarur bo'lgan pedagogik qadriyatlar, kasbiy va shaxsiy fazilatlar tizimi sifatida qaraladi.

Ta'lim jarayonining asosiy maqsadi mehnat bozorida raqobatbardosh, kompetentli-layoqatli, mas'uliyatli, o'z kasbini mukammal egallagan hamda yaqin sohalar faoliyatidan xabardor bo'lgan, o'z ixtisosligi bo'yicha jahon standartlari darajasida samarali mehnat qilishga qodir, izchil tarzda komillikka, ijtimoiy va professional mobillikka intiluvchan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat.<sup>6</sup>

Hozirgi zamonda oliy ta'lim tizimida har qanday nazariy yoki amaliy fanni o'qitish metodikasida pedagogik madaniyat katta rol o'ynaydi va uning tarkibiy qismi, birinchi navbatda, ma'naviy va moddiy qadriyatlar hamda o'quvchi shaxsini tarbiyalash va ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat usullaridan iborat bo'ladi. Pedagogik madaniyat masalasi, shubhasiz, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega, chunki pedagogik hamkorlik qiluvchi asosiy ikki obyektning – o'qituvchi va talaba/o'quvchilarning- estetik, ma'naviy hamda intellektual jihatlari bilan bog'liq.

So'ngra, keyingi o'rinda, talab etiladigan pedagogik ta'sir darajasida o'quv jarayonining to'g'ri kechishiga yo'naltirilgan pedagogning nutqiy faoliyati turadi. Pedagogik madaniyat shakllanishida o'ta muhim ahamiyat kasb etadigan pedagogning bilimi nazariy, metodologik hamda texnologik turlarga bo'linadi.<sup>7</sup> Nazariy bilimlar pedagogga o'qitishning pedagogik kontsepsiyalarini tushunish va farqlay bilish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik jarayonlarni idrok etish yo'llari metodologik bilimlar asosida sodir bo'ladi. Texnologik bilimlar pedagogga o'quv materialini yetkazishning usul va metodlarini qo'llashni o'rgatadi. Shuningdek, umumpedagogik bilimlar ham mavjud bo'lib, ular pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladi, alohida fanlar bo'yicha mavjud bilimlar esa, amaliy bilimlar sirasiga kiradi. Tahlil qilingan pedagogik bilimlar turlarining o'zaro bir-birlari bilan aloqasi quyidagi 1-rasmda tasvirlangan.

Pedagogning bilim va uni o'zlashtirish shakllariga munosabati pedagogik madaniyati mazmunini belgilaydi hamda pedagogik tafakkur darajasini ko'rsatadi.


Pedagogik madaniyat ikki madaniyat kesishmasida shakllanadi: jamiyat madaniyati va shaxs madaniyati, ular o'zaro mustahkam aloqada bo'ladi. Jamiyat madaniyati ijtimoiy moddiy qiymatlarni va ular barobarida ichidagi ta'lim jarayonini saqlashga yo'naltirilgan bo'ladi.<sup>8</sup> Mustaqil rivojlanishiga qaramasdan,

<sup>6</sup> Столярова Е.Л. Изменение субъективности организаторов образовательного процесса как условие эффективности самоактуализации студентов // Современные гуманитарные исследования, 2009. - № 5(30). – С. 180.

<sup>7</sup> Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. – Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского педагогического университета, 2000. – С.38.

<sup>8</sup> Давидович В.Е., Жданов Ю.А. Сущность культуры. – Ростов-на-Дону: Изд-во Рост. ун-та, 1979. – С.28.

jamiyat va shaxs madaniyatlari bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Bu aloqani quyidagi tarzda asoslash mumkin: shaxs madaniyati to'g'ridan-to'g'ri jamiyat madaniyatiga bog'liq, u esa, o'z navbatida, bu jamiyat a'zolari bo'lgan shaxslar madaniyatining jamlanmasidan iborat.



**1-rasm. Pedagogik bilim turlari.**

Shaxs madaniyati borliq obyektlarini ma'naviy idrok etish, insoniy qadriyatlar va ideallarni o'zlashtirish orqali shakllanadi. Shaxs madaniyati mazmuni insonning umumiy madaniyati, kasbiy madaniyati, pedagogik madaniyati hamda psixologik madaniyati kabilarni qamraydi.

Zamonaviy pedagogika fanida "pedagogik madaniyat" atamasining keng qo'llanilishiga qaramay, pedagogik madaniyatning mazmuni va shakllanishiga bag'ishlangan alohida tadqiqotlar kam. Pedagogik madaniyatning egasi o'quvchilarga bilim beruvchi o'qituvchilar hisoblanishadi. A.V. Barabanshikov pedagogik madaniyatni pedagogik tajribani o'zlashtirish darajasi hamda uni pedagogik faoliyat davomida takomillashtirish ko'rsatkichi sifatida talqin qiladi<sup>9</sup>.

Pedagogik faoliyat komponentlari orasida pedagogning pedagogik kompetensiyasi, ziyolilik darajasi, eruditsiyasi, ma'naviyati, pedagogik mahorati, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, professional fazilatlarini, o'z ustida ishlashi kabilarni ko'rsatish mumkin. Pedagogik madaniyatning sanab o'tilgan tarkibiy qismlari o'zaro aloqador hamda bir-birlari bilan uzviy bog'liq, biroq ulardan pedagogik madaniyatning asosiy unsuri pedagogik faoliyat hisoblanadi. Pedagogik faoliyat mazmunida pedagogning o'quv, tarbiya, ilmiy, uslubiy va jamoatchilik ishlarini ajralib turadi. Pedagogik faollik turlarining bunday xilma-xilligi o'qituvchining professional o'sishi qatorida, ilmiy va umuminsoniy fazilatlarini ham takomillashtirishga imkon beradi. Har bir pedagogning o'z pedagogik qadriyatlarini tizimi va professional e'tiqodi hosil bo'ladi. Pedagogik qadriyatlar to'g'risida gapirilganda, shuni unutmaslik kerakki, ular jamiyat dinamikasiga va ijtimoiy ehtiyojlarning o'zgarishiga bog'liq bo'lib, o'zgarish va to'ldirishlarga uchrashi mumkin.

<sup>9</sup> Барабаншиков А.В. Психология восприятия. Организация и развитие перцептивного процесса. – Москва: Высшая школа психологии, 2006. – С.18.

Professional kompetensiya fikrni to'g'ri ifodalash hamda o'quvchilar bilan muloqotga kirishish uchun zarur lisoniy vositalarni to'g'ri tanlashga tayanadi. Pedagogning to'laqonli faoliyati yaxlitlikda pedagogik kompetensiyani tashkil etuvchi kompetensiyaning turli shakllari kompleksiga tayanadi: metodologik, kommunikativ, didaktiv. Zamonaviy tadqiqotlarda isbotlanishicha, pedagogik kompetensiya mazmuni loyihalash faoliyatini amalga oshirilishini ham qamraydi, shuningdek, ta'limning axborot va pedagogik texnologiyalaridan, interaktiv metodlardan faol foydalanishni nazarda tutadi<sup>10</sup>.

Pedagogik kompetentlikka shaxsning kasbiy bilimlarni o'zlashtirishi va ularni muayyan vaziyatlarda qo'llashi maqsadlarida o'qitishga yo'naltirilgan bilim va kasbiy tajriba jamlanmasi sifatida qaraladi. Pedagogik kompetensiyaning ilk "kurtaklari" til ta'limi yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari va filologiya fakultetlari bitiruvchilarining pedagogik amaliyotni o'tashlari chog'ida, talabalar ilk marta o'qituvchi rolini o'ynab uning o'rnida bo'lib qolishganida, kuzatiladi. Pedagogik kompetensiyaning asosiy unsurlaridan biri anglash faoliyati, yangi bilimlarni o'zlashtirishga hamda mavjud o'qitish ko'nikmalarini takomillashtirishga bo'lgan intilish hisoblanadi.

Pedagogik kompetensiyaning mazmuni quyidagi tarzda belgilanadi:

birinchidan, pedagogning umumiy madaniyatiga, ma'lumotni idrok etish va tahlil qilish qobiliyatiga, ta'limda aniq maqsadlarga erishishning to'g'ri metodlarini tanlay olishiga (bizning xolatda chet tillari bo'yicha) asoslanadi. Bu yerda shuningdek, dunyoqarash bo'yicha, falsafiy va ijtimoiy bilimlar jamlanmasi ham muhim hisoblanadi;

ikkinchidan, pedagogik kompetensiya professionalizm va zarur metodlarni tanlash hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali amaliyotga nazariy bilimlarni tatbiq etish malakasi kabilarni, shuningdek, kommunikatsiya – muloqot ko'nikmalarini egallashni qamraydi;

uchinchidan, tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy vazifalarni milliy hamda xorijiy tajriba asosida amalga oshirish. Bunga pedagogning darsdan tashqari tadbirlarni amalga oshirish va talabalar bilan tarbiyaviy va ma'rifiy suhbatlar o'tkazish malakasini kiritish mumkin.

Pedagogik kompetensiya bir qator kompetentliklarni qamraydi:

1. Shaxs kompetentligi, bu fazilat pedagogik faoliyatni amalga oshira bilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Boshqa so'z bilan aytganda, shaxs kompetentligi pedagogning umumiy madaniyatini, ziyolilik darajasini aks ettiradi.


2. Maqsadli kompetentlik, o'quv jarayoni yaratilgan ta'lim maqsadi va vazifalarini to'g'ri qo'yishga yo'naltiriladi. Maqsad kompetentligi moslanuvchan bo'lmog'i va talabalarning individual imkoniyatlariga mos ravishda namoyon bo'lmog'i lozim.

3. Motivatsiya kompetentligi, ta'lim samaradorligi natijalarini oshirishga ko'maklashuvchi talabalarning o'quv jarayonlaridagi ishtirokini rag'batlantirish va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish ko'nikmasidan iborat.

---

<sup>10</sup> Бегимкулов У.Ш. Олий таълим муассасаларининг ягона ахборот маконини ташкил этиш ва уни ривожлантириш истиқболлари // Халқ таълими, 2004. - № 4. – Б. 5.

4. Professional kompetentlik, o'qituvchining nazariy va metodik tayyorgarligi, o'qitadigan fanini o'zlashtirganligi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur bilimlar "xazinasiga" egaligi, ta'lim vositalari hamda metodlarini to'g'ri tanlay bilishi kabilarga tayanadi. Pedagogik kompetensiya shakllanadigan kompetensiyalar jamlanmasini quyidagi chizma shaklida tasvirlash mumkin bo'ladi:



## 2-rasm. Pedagogik kompetensiyaning shakllanishi

Ta'kidlash joizki, ko'rsatilgan kompetentlik turlari o'zaro aloqador hamda pedagogik tajribani o'zida mujassamlashtiradi va o'qituvchining pedagogik fazilatlarini takomillashtirish o'qitish amaliyotida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, pedagogik madaniyat pedagogik hamkorlikning zarur darajasini yaratishda kerak bo'ladigan pedagogik va kasbiy-professional qadriyatlarning yaxlit tizimini o'zida mujassamlashtiradi. U to'g'ridan to'g'ri pedagogning shaxsiy fazilatlari, uning bilim darajasi, intellekti hamda o'quv jarayoni ishtirokchilari bilan pedagogik muloqotga kirishish usullari bilan bog'liq.

**“Pedagogik madaniyatni muvaffaqiyatli o'rgatishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar”** deb nomlangan ikkinchi bob ijtimoiy-lingvistik hamda ijtimoiy-madaniy aspektlarni inobatga olish muhimligi masalasiga, ta'lim tizimini texnologiyalashtirish va axborotlashtirish muammosiga, shuningdek metodik xususiyatga ega ba'zi muammolarni yoritishga bag'ishlanadi. Buning quyidagi omillari mavjud: Birinchi omil ijtimoiy-lingvistik hamda ijtimoiy-madaniy, madaniyatlararo kompetensiyalar va ularning tarkibiy qismlari nuqtai nazaridan yoritiladi. Ikkinchi omil tafakkur va o'zaro pedagogik hamkorlikka ta'sir ko'rsatuvchi axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish vositasida asoslanadi.

Til kishilar o'rtasidagi muloqotda ularning fikrlarini ifodalash uchun qo'llaniladigan ko'plab belgi va ramzlar tizimidan iborat. Kishilar o'rtasida kechadigan kommunikatsiyaning barcha turlari til va til birliklarini qo'llanishiga asoslanadi. Aynan til insonning ichki olamini aks ettiruvchi madaniyatining ko'rsatkichi sifatida tan olinadi.<sup>11</sup> Til muloqot vositasi sifatida sotsiolingvistika

<sup>11</sup> Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования гос впо нового поколения: методическое пособие. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. – С.21.

sohasida o'rganiladi. Zamonaviy chet tili ta'limi masalasi yangidan qo'yilar ekan, chet tillarini o'qitishda dunyoda ko'p madaniyatli hamjamiyatlar barpo bo'lishi va tarqalishi, ularda barcha a'zolarining nafaqat boshqa madaniyat vakillari tilini bilishlari, balki boshqa madaniyatning o'zini ham qabul qilishlari, uning egalari bilan muvaffaqiyatli hamkorlikka kirishishlari taqozo etilishi munosabati bilan madaniyatlararo munosabat alohida ahamiyat kasb etadi<sup>12</sup>.

Chet tili ta'limida madaniyatlararo yondoshuv chet tillarini o'qitishda til tizimini va ta'lim mazmunini emas, balki o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchi xalqning ijtimoiy-madaniy tajribasini o'z tajribasi bilan qiyoslashni ustivor hodisa sifatida ajratib ta'kidlaydi. Bunday yondoshuv o'quvchi shaxsining kamolotiga xizmat qiladi, o'zaro hamkorlik, hurmat, madaniy xilma-xillikka nisbatan sabr-bardoshli va layoqatli bo'lishga hamda madaniy to'siqlarni yengib o'tishga ko'maklashadi.

Talabalarni madaniyatlararo muloqotga o'qitish jarayonida o'z milliy madaniyatlarini anglash jarayoni sodir bo'ladi. Madaniyatlararo muloqotning samaradorligi chet tili mutaxassisidan boy leksik resurslarni hamda standart talaffuzni, shuningdek chet tilida to'g'ri konstruksiyalar tuzish uchun grammatika qoidalarini chuqur bilishni taqozo qiladi. Madaniyatlararo kompetensiya adekvat nutqiy faoliyatni, kutilmagan lisoniy vaziyatlarda munosib reaksiya ko'rsatish uchun lisoniy vositalardan to'g'ri foydalanishni taqozo qiladi, axir millatlararo dialog jarayonida nafaqat turli madaniyatlarning o'zaro hamkorligi sodir bo'ladi, balki u yoki bu madaniyatga xos xatti-harakat modellari ham kuzatiladi.

Bunday kommunikativ metod asosida nafaqat ta'lim amalga oshadi, balki tarbiya, ong o'sishi va shaxsiyat rivoji ham davom etadi. Muloqot axborot va tajriba almashinuvining ijtimoiy jarayonidan iborat bo'lib, uning natijasida kishilar o'rtasida hamkorlik paydo bo'ladi. Xorijiy tilni o'rganayotgan inson u yoki bu iboraning o'rinli yoki o'rinsiz ekanligini bilishi, shuningdek nutq etiketi me'yorlariga rioya qilishi lozim.

Madaniyatlararo kommunikatsiya "turlicha madaniyat va til sohiblari, kommunikantlar, o'rtasidagi (verbal va noverbal) muloqot yoki boshqacha aytilganda, turli madaniyat va tillarga tegishli kishilar hamkorligi jarayonining spetsifik-o'ziga xos jamlanmasi"<sup>13</sup> sifatida talqin qilinadi. Bunda lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarni qamraydigan kommunikativ lisoniy kompetensiyaning shakllanishi va rivojini inobatga olish kerak.

O'zga tilli madaniyatga o'rgatishni autentik materiallar: original badiiy matnlarni, audioyozuvlar va videoroliklarni jalb etgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Materialning bunday shakli lingvoo'lkashunoslik tabiatiga ega bo'ladi va talabalarni o'zga tilli madaniyat bilan eng sodda usulda tanishtiradi. Muayyan til madaniyatiga oid nutqiy etiket formulalarini, mimika va qo'l xatti-harakatini bilish chet tilini o'rganishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>12</sup> Коренькова О.В. Межкультурная направленность современного иноязычного образования. // Современные гуманитарные исследования, 2009. - № 5(30). – С. 149.

<sup>13</sup> Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория и методика обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика: Учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений. – Москва: Издательский центр «Академия», 2004. – С.56.

Pedagogik faoliyatni rivojlantirish omillaridan biri – o‘qituvchining muvaffaqiyatli kommunikativ faoliyati, uning talabalar bilan turli g‘oyalar, uslublar va ta’lim texnikasi asosida o‘zaro munosabatlarining ijtimoiy vositasi sifatida harakat qiladi. Bo‘ljak o‘qituvchining kommunikativ madaniyatini takomillashtirish oliy ta’lim jarayonida, chet tilini o‘rganish davrida, talabalar inglizlarning kundalik madaniyati bilan tanishganda, ularning madaniy an‘analari, xulq-atvor va odob-axloq me‘yorlarini o‘rganganda sodir bo‘ladi. O‘qituvchining kommunikativ faoliyati ta’lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ongli erkinlik, odob-axloq va muloqot madaniyati doirasida o‘quvchilar bilan hamkorlik qilish asosida amalga oshiriladi. Shaxs madaniyatining rivojlanishi bilan birga jamoat madaniyatining rivojlanishi, demak-ki, umuman olganda, ta’lim sifatining oshishi kuzatiladi.

Kompetent o‘qituvchi, qoida tariqasida, nafaqat o‘qitiladigan fan, pedagogika va o‘qitish metodikasi sohasidagi bilimlarga, balki axborot va texnologik savodxonlikka oid boshqa bilimlarga ham ega. Axborot bo‘roni zamonaviy o‘qituvchi oldiga yana bir talab – axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini qo‘ymoqda. Chet tilini o‘rganishni zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Kompyuter texnologiyalari tinglashni o‘rgatishda va chet tilini o‘rgatishda tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishda juda zarur hisoblanadi. Kompyuter, shuningdek, dars taqdimoti, turli ko‘rgazmali o‘quv qurollari va boshqalarni yaratishga yordam beradi. Shunday qilib, pedagogik madaniyat darslarning samaradorligiga erishish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish uchun axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishdagi asosiy muammo – bu talabaga munosabat, shuning uchun o‘qituvchi kasbiy kompetensiyaga va pedagogik madaniyatga ega bo‘lgan holda, o‘quvchining psixologik holatini oldindan bilishi, ziddiyatli vaziyatlarni yengib o‘tishi yoki undan qochishi, o‘zini tuta bilishi va muloyim bo‘lishi hamda ob‘ektiv bo‘lishi kerak. Binobarin, mutaxassislik tilini o‘rgatish jarayonida quyidagi komponentlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi: 1) o‘qitish shakllari va usullari; 2) o‘qituvchining kasbiy mahorat darajasi; 3) yuqori darajadagi professional va pedagogik kommunikativlikka imkon beruvchi muloqot qobiliyatlari; 4) o‘quvchilar bilimiga nisbatan noxolislik va ularni baholash; 5) o‘zini o‘qituvchiga munosib tuta olish qobiliyati; 6) talabalarga do‘stona va hurmatli munosabat; 7) talabalarni rag‘batlantirish; 7) ish muhitini yaratish qobiliyati.

**“Zamonaviy chet tili o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida pedagogik madaniyatni takomillashtirish”** mavzusidagi uchinchi bobda pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlari psixologik-pedagogik, aksiologik hamda lingvodidaktik rejalarda o‘rganiladi. Ikkinchidan, muallif konsepsiyasi tizimli, kognitiv, axloqiy-faoliyat hamda ijtimoiy-madaniy yondashuv pozitsiyalaridan, taklif qilinayotgan ta’lim prinsiplarida hamda ularni ro‘yobga chiqarishning metodik uslublarida aks etganidek, malakali tarzda asoslanadi.

Ta’lim jarayoni samaradorligining ajralmas qismi o‘qituvchining pedagogik madaniyati bo‘lib, uning o‘qitish va tarbiyaviy funksiyasining samarali bo‘lishiga yordam beradi. O‘qituvchining madaniyati o‘qituvchining yuksak kasbiy mahorati

va ichki fazilatlariga asoslanadi. U umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo'lib, o'qituvchining ijtimoiy, ta'lim va tarbiyaviy jihatlardagi muvaffaqiyatli ishini ta'minlaydi.

Pedagog shaxsiyatiga doir asosiy fazilatlar quyidagilar hisoblanadi:

1. Tarbiya ko'rganlik – pedagogning vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy, estetik va boshqa fazilatlarini jamlanmasidan iborat bo'ladi.

2. Bilimdonlik – ilmiy, fundamental, madaniy, falsafiy va pedagogik bilimlarga ega bo'lishi.

3. Ma'lumotlilik – pedagogik imkoniyatlarini o'quv-ta'lim jarayonlariga tatbiq etishi.

4. Barkamollik – pedagogning o'z shaxsini, umumiy madaniyatini, tafakkuri hamda demokratizmini rivojlantirishiga asoslanadi.

Aynan ushbu fazilatlar pedagogning o'z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlaydi.

Yuksak pedagogik madaniyatga ega o'qituvchi quyidagi fazilatlar sohibi bo'ladi:

- pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishdan zavq oladi;
- kasbiy malakasini oshirish maqsadida o'z ustida ishlaydi;
- faoliyatida ta'limning turli zamonaviy uslub va usullaridan, shuningdek kompyuter va pedagogik texnologiyalardan foydalanadi;

- auditoriyada qulay muhitni shakllantiradi va talabalar o'rtasida do'stona muhitni yuzaga keltiradi;

- o'z fanini yaxshi biladi va o'qitilayotgan fan doirasida o'quvchilarning qo'shimcha savollariga javob beradi;

- o'qituvchi shaxsiyati uchun zarur bo'lgan adolatlilik, ob'ektivlik, mehribonlik kabi fazilatlariga ega bo'ladi;

- talabalarining har qanday kutilmagan qiliqlariga sabr qila oladi;

- eng yuqori samaradorlikka erishish maqsadida o'quv jarayonini tashkil eta oladi;

- talabalarining ta'limga qiziqishini yuksaltiradi va o'qish ishtiyoqlarini rag'batlantiradi;

- ijodkorlik-kreativlik va tashabbuskorlik namoyish etadi hamda o'quv jarayoniga yangiliklar kiritadi va hokazo.

Shunday qilib, pedagogik madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari o'qituvchining pedagogik va shaxsiy fazilatlarini, shuningdek, jamiyat va kasbiy faoliyatda normalarga rioya qilishni nazarda tutadigan shaxsning shaxsiy madaniyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ madaniyatidir. O'qituvchining kommunikativ madaniyati hamkasblar va talabalar bilan hamkorlikda, pedagogik muammolarni hal qilishda va o'z-o'zini takomillashtirishda namoyon bo'ladi. U o'qituvchining kasbiy o'sishiga mos ravishda rivojlanadi. Chet tilning kommunikativ madaniyatini o'zlashtirish lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan professional kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish bilan yuzaga keladi. O'qituvchi ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarning kommunikativ me'yorlari va muloqot qoidalariga hamda milliy sharoit sharoitlariga moslasha olishi kerak.

Shunday qilib, ingliz tilida soʻzlashuvchi auditoriyada oʻz fikrini bildirish mamnuniyat bilan qabul qilinadi va hech kim oʻz fikrini yuklamasligi kerak, bu esa baʼzan oʻzbek madaniyatidagi pedagogik oʻzaro munosabatlarning oʻziga xos xususiyatiga zid keladi.

Umumiy va pedagogik madaniyati yuqori boʻlgan oʻqituvchi: 1) oʻzining savodxonligi, bilimdonligi va yetarlicha keng dunyoqarashi bilan ajralib turishi; 2) mutaxassislik tilini yaxshi bilishi; 3) soʻzlovchiga subʼektiv munosabatdan va muloqot mazmunidan qatʼi nazar, oʻz his-tuygʻularini tiya olish, nutq xatti-harakatlarini nazorat qilish va muloqot odob-axloq meʼyorlariga rioya qilish; 4) ibratli nutqi, xulq-atvori va tashqi koʻrinishi boʻyicha oʻquvchilarga meʼyor boʻlishi; 5) konfliktli vaziyatlarning oldini olish va ularni bashorat qila olish, shuningdek muammolarni hal qilish; 6) zamonaviy pedagogik texnologiyalardan metodik oqilona foydalana olishi lozim. Umuman olganda, pedagogik madaniyatli oʻqituvchi judayam koʻp qirrali fazilatlar sohibi hisoblanadi.

Maʼlumki, "yondashuv" boshlangʻich konseptual pozitsiya yoki boshlangʻich gʻoya boʻlib, undan nazariy pozitsiyalar shakllantiriladi [Beam, 1988. p.6]. Shundan kelib chiqib, pedagogik madaniyatni oʻqitishning taklif etilayotgan modeli konsepsiyasi sifatida tizimli, rivojlantiruvchi va axloqiy-faollik yondashuvlari tanlandi. Tizimli yondashuv chet tili oʻqituvchilarining pedagogik madaniyatini oshirishning maqsadlari, mazmuni, vositalari va natijalarini kompleks tarzda koʻrib chiqish imkonini berdi. Pedagogik madaniyat oʻqituvchining umumiy madaniyati, axloqi va bilimi bilan bogʻliq boʻlib, uning kasbiy faoliyatini amalga oshirishga yordam beradi. Shu sababli oʻqituvchi shaxsini lingvistik va madaniy jihatdan rivojlantirish muhim yondashuvga aylandi. Madaniy reja pedagogik madaniyatning qadriyat-semantik jihatini ham qamrab oladi. Axloqiy-faollik yondashuvi meʼyoriy va amaliy axloq nuqtayi nazaridan, shuningdek, qiymat jihatidan asoslanadi.

Pedagogik madaniyatni oʻqitish yoki takomillashtirishning asosiy tamoyillari: 1) aksiologik; 2) rivojlanayotgan; 3) bilish; 4) kommunikativ yoʻnalish; 5) funktsionallik; 5) chet tili oʻqituvchisi kommunikativ madaniyatining milliy oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Kontent komponenti sifatida, yaʼni pedagogik madaniyatni oʻqitish obʼekti pedagogik muloqotning oʻzaro taʼsir, muloqot va xulq-atvor jihatlari bilan bevosita bogʻliq boʻlgan kommunikativ madaniyatning madaniy-axloqiy jihati edi.

Texnologik komponent maʼruza-munozara, intervyu, bumerang, debatlar, tadqiqot, rolli oʻyinlar va ingliz tili oʻqituvchilari uchun oʻquv seminarlari uchun mos situativ topshiriqlar kabi turli zamonaviy texnologiyalarni oʻz ichiga oladi.

**“Ingliz tili oʻqituvchilarining pedagogik madaniyatini takomillashtirish uchun oʻquv materiali samaradorligini tajriba-eksperiment tarzida tekshirish”** nomli toʻrtinchi bobda empirik tadqiqot bayon qilinadi, statistik tahlil, hamda pedagogik kompetensiya va pedagogik madaniyatni takomillashtirish masalalariga doir tavsiyalar taqdim etiladi.

Tajriba-eksperimental tekshiruv oliy taʼlim tizimida chet tili oʻqituvchilarining pedagogik madaniyatini takomillashtirish boʻyicha maxsus dastur asosida amalga oshirildi.

Tajriba-eksperimental tekshiruv ishlari Samarqand davlat chet tillar institutida (quyida SamDCHTI), Buxoro davlat universitetida (quyida BuxDU), Navoiy davlat pedagogika institutida (NavDPI), Jizzax davlat pedagogika universitetida (JizDPU) 2022-2023-o'quv yili davomida oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini takomillashtirish bo'yicha maxsus dastur asosida o'tkazilgan.

Eksperimental sinov to'rt bosqichda o'tkazildi: diagnostika, tashkiliy, amaliy va baholash-statistik bosqichlar.

**Diagnostika bosqichining maqsadi** oliy ta'lim tizimidagi chet tili o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoj va talablarni, ularning pedagogik madaniyatga egalik darajasini aniqlashdan iborat.


**Tashkiliy bosqichning maqsadi** pedagogik madaniyatni oshirish muammolari bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni to'plash, oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivojlantirishning yondashuvlari va usullarini o'rganish, o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini takomillashtirish bo'yicha ta'lim vositalarini ishlab chiqish. Shuningdek, pedagogik madaniyatni yuksaltirish dinamikasini nazorat qilishning o'lchov vositalarini tashkil qilishdir.

**Amaliy bosqichning maqsadi** pedagogik madaniyatni takomillashtirish, ularning sifati va oqilonaligini baholash uchun ishlab chiqilgan ta'lim vositalarini amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini olib borishning tashkiliy-tayyorgarlik bosqichida pedagogik tajriba maydonchalari va ishtirokchilar aniqlanib, o'quv qurollari va diagnostika materiallari bilan uslubiy ta'minlash yo'lga qo'yilgan.

Diagnostika bosqichida (eksperimentdan oldingi) ingliz tili o'qituvchilarining darslarini so'roq qilish, test qilish va kuzatish usullaridan foydalanildi. Tajribadan oldingi bosqichda Samara davlat chet tillar institutidan 64 nafar, BuxDUdan 44 nafar, NavDPI dan 47 nafar, Jizzax davlat pedagogika universitetidan 49 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. O'qituvchilar uchun so'rovnomada bevosita o'qitish madaniyatiga oid 8 ta savol kiritilgan. So'rov natijalarini qayta ishlash jarayonida pedagogik madaniyat yo'nalishi bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lgan o'qituvchilar soni 11,31 foizni, bilim darajasi o'rtacha bo'lgan o'qituvchilar soni 24,89 foizni, bilim darajasi past o'qituvchilar 63,81 foizni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Anketadan tashqari, ushbu universitetlarda ingliz tili o'qituvchilarining ochiq darslarida o'qituvchilar sinovdan o'tkazildi va kuzatildi. Darslarni baholash maxsus ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirildi.

Darsni tahlil qilish natijalari quyidagi diagrammada ko'rsatilgan (3-rasmga qarang):



**3-rasm. Ochiq darslar davomida o'qituvchilarning baholash foizi**

“A’lo” deb baholangan darslar ko‘k rangda, “yaxshi” deb baholangan darslar sariq rangda, “qoniqarli” darslar kulrang rangda va “qoniqarsiz” qizil rangda ko‘rsatilgan.

Deyarli barcha o‘qituvchilar uchun eng yuqori reyting “o‘qituvchining tashqi ko‘rinishi” va “dars materialini o‘zlashtirish” kabi mezonlar bo‘yicha ko‘rsatilgan.

Anketalar, test sinovlari va dars tahlillari yordamida ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik madaniyatini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha ishlar zarurligi ma’lum bo‘ldi.

Tajriba mashg‘ulotlari ushbu to‘rtta oli ta’lim muassasalarida ishlab chiqilgan o‘quv vositalari asosida o‘quv seminari shaklida o‘tkazildi. O‘quv-seminar davomida “pedagogik kompetensiya” va “pedagogik madaniyat” tushunchalari bilan bog‘liq masalalar muhokama qilindi, pedagogik madaniyatni o‘rgatish tamoyillari tushuntirildi, pedagogik madaniyatni o‘zlashtirish bo‘yicha vaziyatli vazifalar taqdim etildi.

Eksperimental treningni tugatgandan so‘ng, eksperimentdan oldingi bosqichda foydalangan savollar bo‘yicha anketalar va testlar o‘tkazildi.

Biz yakuniy anketa va test natijalarini eksperimentdan oldingi bosqich ko‘rsatkichlari bilan taqqoslab tahlil qildik.

Statistik hisoblash Fisher testi asosida amalga oshirildi, bu testning umumiy natijalarini aniqlashga imkon berdi va ijobiy natijalarni aniqlash uchun formulalar bilan Pearson statistik testidan foydalanildi.

Quyidagi jadvalda xi kvadrat mezoni asosida aniqlangan umumiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar keltirilgan (1-jadvalga qarang):

**1-jadval.**

### Umumiy ko‘rsatkichlarning statistik tahlili

Statistik ma’lumotlar		Umumiy daraja					
		25-35 yosh		35-50 yosh		50-65 yosh	
		EG	NG	EG	NG	EG	NG
<b>Javoblar soni va foiz</b>	Yetarlicha ta’minot	<b>13</b> 26,53%	<b>5</b> 10,87%	<b>12</b> 27,27%	<b>5</b> 11,63%	<b>8</b> 66,67%	<b>2</b> 20,00%
	O‘rtacha bilim darajasi	<b>31</b> 63,27%	<b>14</b> 30,43%	<b>29</b> 65,91%	<b>16</b> 37,21%	<b>4</b> 33,33%	<b>4</b> 40,00%
	Bilim darajasi past	5 10,20%	27 58,70%	3 6,82%	22 51,16%	0 0,00%	4 40,00%
		<b>O‘rtacha qiymati</b>		4,16	3,52	4,20	3,60
<b>Samaradorlik</b>		1,18		1,17		1,23	
<b>Xi kvadrat</b>		25,03		21,07		7,48	
<b>Kritik ahamiyatlilik</b>		5,99		5,99		5,99	
<b>Tanlov farqi</b>		0,34		0,30		0,22	
<b>Standart xatolar</b>		0,58		0,55		0,47	
<b>Ishonchlilik oralig'i</b>		4,00	3,35	4,04	3,44	4,40	3,51
		4,33	3,69	4,37	3,77	4,93	4,09
<b>Xulosa</b>		H1		H1		H1	

Bu yerda kuzatish qiymati kritik qiymatdan kattaroq bo‘lib chiqdi ( $T_{kuz.} > T_{kr.}$ ), keyin gipoteza  $H_0$  rad etiladi va  $H_1$  gipoteza qabul qilinadi.

Oldindan test uchun statistik tahlil natijalarini quyidagi 2-jadvalda ko'rish mumkin:

**2-jadval.**

**Eksperimentdan oldingi sinov natijalarining statistik tahlili**

№	OTM	Guruh	O'rtacha qiymati	Samaradorlik	Xi kvadrat	Kritik ahamiyatlilik	Tanlov farqi	Standart xatolar	Ishonchlilik oralig'i		Xulosa
1.	SamDCHTI	EG	2,69	1,00	0,53	7,81	0,84	0,92	2,37	3,01	H0
		NG	2,69				0,71	0,85	2,39	2,98	
2.	BuxDU	EG	3,05	1,00	0,57	7,81	0,86	0,93	2,66	3,43	H0
		NG	3,05				0,68	0,82	2,70	3,39	
3.	NavDPI	EG	3,00	1,00	0,21	7,81	0,92	0,96	2,62	3,38	H0
		NG	3,00				0,87	0,93	2,62	3,38	
4.	JizDPU	EG	2,88	1,00	0,72	7,81	0,75	0,86	2,54	3,22	H0
		NG	2,88				0,94	0,97	2,49	3,26	
	<b>Jami</b>	EG	2,88	1,00	0,12	7,81	0,86	0,93	2,70	3,06	H0
		NG	2,88				0,82	0,90	2,70	3,06	

O'qituvchilarning dastlabki va yakuniy test sinovlari natijalarining statistik tahlili o'tkazildi. Kuzatish qiymatini kritik qiymat ko'rsatkichi ( $T_{\text{kyz.}} > T_{\text{kp.}}$ ) bilan taqqoslashda shart bajarilmaganligi sababli, keyin bu yerda  $H_0$  gipoteza qabul qilinadi. Yakuniy test natijalarining statistik ma'lumotlarini 3-jadvalda ko'rsatish mumkin:

**3-jadval.**

**Natijalarning statistik tahlili yakuniy sinov**

№	OTM	Guruh	O'rtacha qiymati	Samaradorlik	Xi kvadrat	Kritik ahamiyatlilik	Tanlov farqi	Standart xatolar	Ishonchlilik oralig'i		Xulosa
1.	SamDCHTI	EG	3,84	1,17	10,03	7,81	0,51	0,71	3,60	4,09	H1
		NG	3,28				0,45	0,67	3,05	3,51	
2.	BuxDU	EG	4,00	1,19	8,17	7,81	0,45	0,67	3,72	4,28	H1
		NG	3,36				0,60	0,77	3,04	3,69	
3.	NavDPI	EG	3,92	1,17	8,06	7,81	0,49	0,70	3,64	4,20	H1
		NG	3,35				0,49	0,70	3,06	3,63	
4.	JizDPU	EG	3,88	1,18	8,65	7,81	0,43	0,65	3,62	4,14	H1
		NG	3,29				0,62	0,79	2,98	3,61	
	<b>Itoro</b>	EG	3,90	1,18	34,61	7,81	0,48	0,69	3,77	4,04	H1
		NG	3,32				0,53	0,73	3,17	3,46	

Kuzatish qiymati ( $T_{\text{kyz.}} > T_{\text{kp.}}$ ) kritik qiymatdan kattaroq bo'lganligi sababli  $H_0$  gipoteza rad etiladi va  $H_1$  qabul qilinadi. Demak, mazkur tadqiqot materiallarini o'quv jarayoniga joriy etish natijasida uning samaradorligi 1,18 barobar oshgani statistik tahlillar bilan isbotlangan.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan o'quv seminar materiallari ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini takomillashtirishda samarali ekanligini tajribada o'rganish isbotladi.

Eksperimental mashg'ulot yakunida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumot va bilimlarni kengaytirish imkoniyatlari, qo'shimcha material tanlash, individual yondashuvni ishlab chiqish, nazoratning ob'ektivligi, shuningdek, pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

## XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi nazariy va uslubiy xulosalar ishlab chiqildi:

1. Kasbiy faoliyatning sifati bevosita pedagogik kompetensiyaning rivojlanish darajasiga va undagi muhim tarkibiy qism – muloqotning pedagogik madaniyatiga bog'liq. Pedagogik kompetensiyani takomillashtirish ijodiy qobiliyatlarni, kasbiy va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish orqali o'qituvchining kasbiy va umumiy bilimlarini kengaytirishga asoslanadi. Pedagogik madaniyatni rivojlantirish va takomillashtirish o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi pedagogik o'zaro munosabatlarning estetik, ma'naviy va intellektual tomoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'qituvchining kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan pedagogik va kasbiy qadriyatlar majmuyini ifodalaydi. O'qituvchi madaniyatining mazmuni, uning umumiy madaniyati, kasbiy madaniyati va psixologik madaniyatini o'z ichiga oladi.

2. Chet tili o'qituvchilarini tayyorlashda lingvodidaktikaning yutuqlarini hisobga olish, pedagogik madaniyatga oid masalalarni nazariy va amaliy jihatdan umumlashtirish va tahlil qilish quyida pedagogik madaniyatning tarkibiy qismlarini tizimlashtirish imkonini berdi: 1) kommunikativ madaniyat (savodxonlik va xushmuomalalik nuqtayi nazaridan mutaxassislik tilini bilish); 2) aksiologik (chet tili o'qituvchilari ega bo'lishi kerak bo'lgan pedagogik qadriyatlar to'plami), 3) texnologik (o'qituvchining o'quv faoliyatini amalga oshirish usullari va uslublari), 4) shaxsiy va ijodiy (o'z-o'zini rivojlantirish jarayoniga qaratilgan) kasbiy pedagogik madaniyatni rivojlantirish).

3. Pedagogik madaniyati yuqori bo'lgan chet tili o'qituvchisining asosiy fazilatlari qatoriga quyidagilar kiradi: bilimdonlik, keng dunyoqarash, mutaxassislik tilini mukammal bilish, o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini tuta bilish, tashqi ko'rinishiga yarasha, o'quvchilarga va boshqalarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lish, yaxshi o'qitish usullari, pedagogik mahorat va tashkilotchilik fazilatlari.

4. Mutaxassislik tilini o'qitishda sotsiolingvistik va sotsial-madaniy jihatlar muloqot shakllari va kommunikantlarning psixologik holatini o'rganishni, til vositalaridan foydalanishning pragmalingvistik xususiyatlari va ijtimoiy munosabatlarini o'zlashtirishni ta'minlaydi va shu bilan pedagogik madaniyatni yuksaltirishga foydali ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, pedagogik madaniyatni yuksaltirishda ta'lim jarayonining turli uslubiy muammolarini hal etishga xizmat

qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

5. O'qituvchining kommunikativ madaniyatini rivojlantirish va takomillashtirish qonuniyatlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: 1) o'qituvchining umumiy, kommunikativ va pedagogik madaniyat darajasi bilan belgilanadigan uyg'un rivojlanishi; 2) o'qituvchining kommunikativ madaniyatini rivojlantirish oliy ta'lim va umuman jamiyatdagi ta'lim standartlarning tashqi va ichki omillari bilan belgilanadi; 3) o'qituvchining kommunikativ madaniyatini takomillashtirish jarayoni insonning ijtimoiy, milliy-madaniy va shaxsiy xususiyatlariga bog'liq; 4) ta'lim tizimining samaradorligi umuminsoniy va milliy o'ziga xos qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishni ta'minlaydigan pedagogik jarayonga bog'liq; 5) pedagogik madaniyatni rivojlantirish samaradorligi oqilona foydalaniladigan yondashuvlar va o'qitish vositalariga bog'liq.

6. Tizimli, rivojlantiruvchi va axloqiy-faoliyat yondashuvini birlashtirgan konsepsiya taklif etilib, birgalikda ular quyidagilarga imkon beradi: 1) chet tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini oshirish maqsadi, mazmuni, vositalari va natijasini belgilash; 2) o'qitish va o'z-o'zini tarbiyalash orqali o'qituvchi shaxsini lingvistik va madaniy jihatdan rivojlantirish; 3) chet tilidagi kommunikativ faoliyat jarayonida me'yoriy etika (ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tamoyillari va me'yorlari, jamiyatdagi muayyan xulq-atvor qoidalari) va muloqotning pedagogik etikasini (ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatda nutq va xulq-atvor odobi, xushmuomalalik vositalari) egallash.

7. Pedagogik madaniyatni o'qitish yoki yuksaltirishning asosiy tamoyillari quyidagilar bo'lishi kerak: 1) aksiologik; 2) rivojlanayotgan; 3) bilish; 4) kommunikativ yo'nalish; 5) funkcionallik; 5) chet tili o'qituvchisining kommunikativ madaniyatining milliy o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

8. Pedagogik madaniyatni o'rgatishda mazmun texnologik komponent sifatida pedagogik muloqotning o'zaro ta'sirli va nutqiy-xulq-atvor jihatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ madaniyatning madaniy-axloqiy jihatini o'rgatish zarur. Pedagogik madaniyatni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish kerak: ma'ruza-munozara, intervyu, bumerang, debatlar, tadqiqot, rolli o'yinlar va ingliz tili o'qituvchilariga o'quv seminarlari uchun maqbul bo'lgan vaziyatli topshiriqlar.

9. Ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini oshirish bo'yicha o'tkazilgan seminar-treningda eksperimental test o'tkazish shartlarini nazariy va empirik jihatdan o'rganish va taklif qilingan o'quv materiallarining o'zi amalga oshirilishi ularning samaradorligi va izchilligini ko'rsatdi, bu statistik ishlov berish orqali isbotlandi.

10. Eksperimental mashg'ulotlar natijalarini tahlil qilish mualliflik konsepsiyasi va o'quv materiallaridan keng foydalanishni taklif qilish uchun asos beradi.

11. Tadqiqotning istiqbollari bir tilli va ikki tilli madaniyatlararo muloqot sharoitida pedagogik kommunikativ madaniyatni o'rgatishda interaktivlik qiyinchiliklarini yanada chuqurroq o'rganishda ko'rinadi.

**РАЗОВЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ  
САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**ИСМАИЛОВ АНВАР РУСТАМОВИЧ**

**УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И  
КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В  
СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора педагогических наук (DSc)**

**Самарканд – 2026**

Тема диссертации доктора наук (DSc) по педагогическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.3.DSc/Ped226.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyounet» ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

**Научный консультант:** Тухтасинов Ильхомжон Мадаминович  
доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Официальные оппоненты:** Махкамова Гулнара Турдияхуновна  
доктор педагогических наук, профессор

Мисиров Сохибжон Абдупаттаевич  
доктор педагогических наук, профессор

Исроилова Дилдора Мухтаровна  
доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:** Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится « 1 » мая 2026 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 63042). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан « 17 » апреля 2026 года.  
(Протокол реестра рассылки за № 24 от « 17 » апреля 2026 года)



**Н.З. Насруллаева**  
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдошев**  
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

**Д.А. Киселёв**  
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

**Актуальность и востребованность темы диссертационного исследования.** Сегодня в условиях глобализации мирового сообщества требуются специалисты, обладающие не только определенным запасом знаний, но и богатым внутренним комплексом личностных качеств, широким кругозором, гуманностью, этикой и нравственными ценностями. Современная методика обучения иностранным языкам опирается не только на систему новых подходов и методов обучения, но и переосмысленное отношение к профессиональной деятельности преподавателя, уровень его педагогической компетенции и педагогической культуры, играющих важную роль в эффективности учебно-воспитательного процесса и правильной организации всей системы обучения иностранным языкам. При этом большое значение приобретает проведение теоретических научных исследований, нацеленных на формирование педагогической компетенции как составляющей профессиональной подготовки преподавателя иностранного языка в системе высшего образования. Немаловажным является изучение вопроса о формировании педагогической культуры, её компонентов и факторов, воздействующих на её развитие.

Мировая практика обучения английскому языку продемонстрировала большой интерес к изучению педагогической компетенции преподавателя английского языка высшего учебного заведения, поскольку педагогическая компетенция и педагогическая культура стали рассматриваться как важнейшие атрибуты осуществления его профессиональной и учебно-образовательной деятельности и установления международных и межнациональных сотруднических отношений. В этом аспекте большое внимание уделяется этапам формирования педагогической компетенции как у самих преподавателей английского языка, так и у студентов филологических вузов как будущих специалистов английского языка. Здесь важным является внедрение поэтапного формирования педагогической компетенции и развитие педагогической культуры у преподавателей английского языка, а также изучение факторов, влияющих на этот процесс.

Одним из важнейших условий развития нашего государства признано усовершенствование системы образования и подготовки высококвалифицированных кадров. Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев на торжественном собрании, посвященном Дню учителей и наставников: «Сегодня каждый учитель, воспитатель, преподаватель вуза обязан обладать глубокими знаниями и широким мировоззрением, активно овладевать последними достижениями науки, образования и внедрять их в учебный процесс, одним словом, должен быть передовым представителем нашего времени и общества<sup>14</sup>. Сегодня обучение иностранным языкам занимает важное место в системе образования Республики Узбекистан и

---

<sup>14</sup>Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном Дню учителей и наставников от 30 октября 2020 года // Сайт УЗА (Электронный ресурс). – URL <https://uza.uz/ru/posts/vystuplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziye-30-09-2020> (дата обращения: 14.02.2021)

стало необходимостью страны, уделяющей особое внимание росту интеллектуальных и духовных ценностей. Обучение иностранным языкам является общественным явлением и феноменом исторического развития. В рамках глобализации иностранный язык просто необходим в установлении контактов стран и народов мира с целью экономического, культурного и научного сотрудничества.

Данное диссертационное исследование также служит реализации задач, определенных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан, включая Закон Республики Узбекистан “Об образовании” № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 г., Указ Президента Республики Узбекистан № УП – 4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 г., Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5712 “Об утверждении концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 29 апреля 2019 г., Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года; Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4851 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий, развитию и интеграции научных исследований с IT-индустрией» от 06.10.2020 г., Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан” от 19 мая 2021 г., в постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 610 «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях» от 11 августа 2017 г. и в других нормативно-правовых документах данной сферы.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

#### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.**

Исследования способов лингвистической подготовки и процесса формирования педагогической компетенции преподавателей вузов и средних школ проводятся в Московском государственном университете (Россия); Ростовском государственном педагогическом университете (Россия); Волгоградском государственном университете (Россия); Алтайском государственном университете (Россия); Университете Нью Джерси (США), Пенсильванском государственном университете (США), Оксфордском университете (Великобритания), Узбекском государственном университете

мировых языков, Ташкентском государственном педагогическом университете и Самаркандском государственном институте иностранных языков (Узбекистан)<sup>15</sup>.

В рамках исследований по повышению уровня профессиональной подготовки преподавателей высшего и среднего образования изучены психологические и индивидуальные особенности в изучении иностранных языков (Университет Нью Джерси); определена связь между изменениями в языковой системе и осведомлённости языкового социума (Пенсильванский государственный университет); выявлены лингвокультурологические показатели языка и рассмотрено влияние культуры на развитие языковой системы (Оксфордский университет); изучены психологические аспекты обучения иностранным языкам в школе (Московский государственный университет); разработана теория и практика личностно-ориентированного образования (Ростовский государственный педагогический университет); сформирован курс подготовки учителей к проектированию личностно-ориентированного взаимодействия с учащимися (Волгоградский государственный университет); внедрены инновационные обучающие технологии в профессиональной подготовке специалистов (Алтайский государственный университет).

